O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 25 - aprel 258-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyati “ZANGIOTA OBODON” mas’uliyati cheklangan jamiyatining qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun yangi tariflarni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4845-sonli Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-son Qarori hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022-yil 18-apreldagi VI-51-70-10-0-K/22-son qaroriga asosan Toshkent viloyatining Toshkent tumani hamda Chirchiq shaharlarida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun tariflarni tartibga solish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022-yil 18-apreldagi VI-51-70-10-0-K/22-sonli qarori bilan, “ZANGIOTA OBODON” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Toshkent viloyatining Toshkent tumani va Chirchiq shahrida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun yangi belgilangan tariflari 1-ilovaga muvofiq ma’qullanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi (B.Djurayev), Viloyat “Toza hudud” davlat unitar korxonasi (S.G‘afforov) “ZANGIOTA OBODON” mas’uliyati cheklangan jamiyati bilan birgalikda:

Joriy yilning 1-may kunidan e’tiboran Toshkent tumani va Chirchiq

shahrining fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni yig‘ish va olib chiqish xizmatini ro‘yxat bo‘yicha abonentlari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish va to‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etishni ta’minlasin.

3. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (O.Xalikulov), viloyat G‘aznachilik boshqarmasi (F.Nurullayev) bilan birgalikda budjetdan mablag‘ bilan ta’minlanadigan tashkilotlarning xarajatlar smetasida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni tashib chiqarish xarajatlari bo‘yicha belgilangan normativlar asosida zarur mablag‘lar rejalashtirilishi ta’minlansin.

4. Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i (Z.Eralieva), “Toshkent haqiqati”, “Tashkentskaya pravda”, “Chirchiq tongi” va “Chirchik” gazetalariga qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlarining yangi tariflari qo‘llanilishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishi tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, obodonlashtirish va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Meliyev zimmasiga yuklatilsin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 25 apreldagi
258-10-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

“Zangiota obodon” mas’uliyati cheklangan jamiyati qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun amaldagi va taklif etilayotgan narxlari (tariflar)

T.r.	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Amaldagi narx (tarif) (so‘m)	Amaldagi narx (tarif) (so‘m) (QQS bilan)	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m)	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m) (QQS bilan)
"Zangiota obodon" MChJ						
1.	**Jismoniy shaxslar uchun**	**1 kishi**	2 800,0	2 800,0	3 600,0	3 600,0
2.	**Yuridik shaxslar uchun**	**1 m3**	44 500,0	51 175,0	53 922,0	62 010,3
"Zangiota obodon" Chirchiq filiali						
1.	**Jismoniy shaxslar uchun**	**1 kishi**	3 900,0	3 900,0	4 400,0	4 400,0
2.	**Yuridik shaxslar uchun**	**1 m3**	46 788,3	53 806,5	53 922,0	62 010,3